

**“SHOHSANAM VA G‘ARIB” DOSTONI MANBALARI HAQIDA****Madirimova Soxiba Maxmudovna,**

F. f. b. f. d. (PhD), dotsent v.b.,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

madirimova555@gmail.com

+998946878143

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7905632>**Резюм**

Статья посвящена описанию древних рукописных копий поэмы “Шахсенем и Гариб” и их месту в изучении поэмы. В рамках данного дискурса проанализированы некоторые взгляды относительно изучения и генезиса произведения на основе различных рукописных вариантов произведения.

Ключевые слова: рукопись, источник, текст, исследование, инвентарный номер, классификация, поэма, опорные источники, вспомогательные источники, введение, послесловие, сравнительно-текстологический анализ, стих.

Resume

The article is devoted to the explanation of old written copies of the “Shakhsanam and Gharib” poem and their place on the observing of the source. In this discourse, different views on the research and genesis of the poem were analyzed according to various written versions of the poem.

Key words: manuscript, source, text, research, inventor number, classification, poem, main sources, secondary sources, preface, comparative-textual analysis, verse.

Rezyume

Maqolada “Shohsanam va G‘arib” dostonining qadimiy qo‘lyozma nusxalari va ularning dostonni o‘rganishdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi. Dostonning o‘rganilishi, genezisi yuzasidan qilingan ayrim tadqiqotlarga dostonning turli qo‘lyozma variantlari doirasida munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma, manba, matn, tadqiq, inventar raqam, tasnif, doston, tayanch manbalar, yordamchi manbalar, debocha, xotima, qiyoslamog, she‘r.

“Shohsanam va G‘arib” dostoni, asosan Xorazm viloyati, Buxoro viloyatining Olot, Qorako‘l tumanlari, Turkmaniston Respublikasining Chorjo‘y va Toshovuz viloyatida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida yashovchi o‘zbeklar orasida keng tarqalgan.



“Shohsanam va G‘arib” dostonining o‘rganilishi, genezisi yuzasidan bir qancha olimlar tadqiqot olib borgan. Folklorshunos olim prof. S.Ro‘zimboyev “Xorazm dostonlari” [1] kitobida “Shohsanam va G‘arib” dostonining o‘zbek, ozarbayjon, turkman va qoraqalpoqlar tomonidan kuylanganligi, doston badiiyati masalalarini yoritib o‘tadi. Olim tadqiqoti uchun dostonning Bola baxshi, Qodir Sozchi variantlarini asos qilib oladi. A.Ishayev “Shohsanam va G‘arib” dostonining syujet o‘zagi saljuqiylar davlatining G‘arbiy chegaralarida emas, balki Sharqiy chegaralarida yaratilganligi to‘g‘risida bahs yuritadi [2]. Folklorshunos O.Madayev o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida boshqa dostonlar qatori “Shohsanam va G‘arib” dostoni badiiy xususiyatlari haqida mulohazalar bildirgan [3]. 1994-yilda G.Eshchanova “Shohsanam va G‘arib” dostonining variantlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan [4]. “Shohsanam va G‘arib” dostonining toshbosma, qo‘lyozma va baxshilar kuylagan og‘zaki variantlarini o‘rganib, dostonning genezisi masalasini o‘rgangan. Sharqshunoslik instituti fondidagi 6408-inventar raqamli qo‘lyozmani asos qilgan holda, mavjud doston manbalarini bir-biriga qiyoslagan.

G.Eshchanova garchi “Shohsanam va G‘arib” dostonining variantlari yuzasidan ish olib borgan bo‘lsa ham, tadqiqotda dostonning barcha qo‘lyozma va toshbosma nusxalari jalb etilmagan. Bu esa dostonning genezisi, og‘zaki va yozma matndagi mushtarak-farqli jihatlarini aniqlash bo‘yicha qilingan xulosalarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Negaki, doston genezisi va asarning ishonchli matnini tayyorlash xususidagi ilmiy xulosalar, modomiki, “Shohsanam va G‘arib” dostoni qo‘lyozma va toshbosma manbalarining barchasini to‘la qamrab olgan matnshunoslik va manbashunoslikning tizimli tadqiqi asosida yuzaga chiqmas ekan, taqdim etiladigan har qanday ilmiy natija to‘laqonli hisoblanmaydi. Shu maqsadda ushbu maqolamizda dostonning qo‘lyozma manbalari haqida imkon qadar kengroq ma‘lumot berishga harakat qildik.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida “Shohsanam va G‘arib” dostonining o‘nta (10 ta) qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, shulardan oltitasi (6408, 695, 7751, 7595, 12231, 9332 raqamli qo‘lyozmalar) institutning qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

Qolgan to‘rttasi – 541, 1276, 2053, 2595/II raqamli manbalar mazkur institutning Hamid Sulaymonov fondidan joy olgan. Mazkur qo‘lyozmalar “Shohsanam va G‘arib” dostonining ishonchli matnini tayyorlashda tayanch manba vazifasini o‘tashi mumkin.



541[5], 6408[6], 1276[7] raqamli qo'lyozmalar boshqa manbalardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

- dostondagi voqealar to'liq va chiroyli izohlar bilan berilganligi;
- doston badiiyati mukammal ekanligi.

Qiyosiy o'rganish natijalari 6408, 1276-inventar raqamli qo'lyozmalarga nisbatan 541-inventar raqamli qo'lyozmaning eng qadimgi, eng mukammal nusxasi ekanini ko'rsatadi. Bunday deyilishiga sabab, dostonning qo'lyozma manbalari XIX asrning ikkinchi yarmida ko'chirilgan. "Shohsanam va G'arib" dostoni mavjud 10 ta qo'lyozmasining qiyosiy tadqiqoti dastlabki xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Dostonning juda ko'p qo'lyozmalari bo'lganligi uchun ular orasidan eng qadimgi va mukammal nusxasi sifatida bitta qo'lyozma manbani topish biroz murakkablik tug'diradi. Shunday ekan, 541-inventar raqamli qo'lyozmani ilmiy jihatdan o'rganib, ushbu qo'lyozmada XIX asrning birinchi choragida ko'chirilgan qo'lyozmalarga xos ayrim xususiyatlarini aniqlash zarurati bor.

XVII-XIX asrlardagi adabiy manbalar garchi nasta'liq xatida ko'chirilgan bo'lsa-da, ularda nasx xatining ba'zi unsurlari seziladi. Deylik, harflarning shakli biroz tikroq va "alif", "lom"larning qisqaroq chiziqlar bilan bitilgani ko'rinadi. Shunga ko'ra, 541-inventar raqamli qo'lyozmani boshqa nusxalardan qadimiyroq deb taxmin qilish mumkin. Yana shuni aytish kerakki, qo'lyozma qog'ozining qalinligi va sifati ham poligrafik kuzatishlarga ko'ra boshqa manbalardan ko'ra qadimiyroq ekani haqidagi to'xtamga kelish uchun asos bo'la oladi.

Bu qo'lyozmaning debochasidan to doston xotimasigacha bo'lgan voqealar to'liq bayon qilingan. Sabab, doston voqealari batafsil bayon qilinganligi, obrazlarning badiiy jihatdan mukammal tasvirlanishi, voqea-hodisalarning ta'sirchanligi ushbu manbaning boshqa qo'lyozmalarda berilgan doston voqealaridan tubdan farq qiladi. Bu qo'lyozmani ko'chirgan kotib manbaga ilmiy yondashgan.

Tayanch manbalar qatori sanab o'tilgan 6408-inventar raqamli qo'lyozmaning mazmun jihatidan qisqartirilgani kuzatiladi. Bu qo'lyozma 57 varaqdan iborat. 541-inventar raqamli qo'lyozma esa, 78 varaqni o'z ichiga oladi. Shu sababdan dostonning voqealari 541-inventar raqamli qo'lyozma manbaga nisbatan qisqartirishlarga uchragan. Bu qo'lyozmaning siyohlari uchib ketgan. 21, 32-varaqlari yirtilgan, yana shuni aytish kerakki, 541-inventar raqamli qo'lyozmada nazmda berilgan ba'zi voqealar 6408-inventar raqamli qo'lyozmada nasrda beriladi. Natijada, bu qo'lyozmada ta'sirchanlik yo'qolgan.



Voqea hikoya tarzida bayon etilgan. Xalq og'zaki ijodiga xos bu dostonni o'qish kitobxonning real tasavvurga ega bo'lishi uchun voqealarning hikoya tarzidagiga nisbatan nazmda berilishi qiziqarli va ta'sirchan chiqishi ayon. Eng muhimi, voqealarni kitobxon ko'z oldida tasavvur qila olishi, doston voqealari nasr bayoniga nisbatan ko'proq nazmda berilishi dostonning emotsionalligini saqlaydi. Shunga qaramay bu qo'lyozmadan ham nisbatan to'liq manba sifatida foydalanish mumkin.

1276-inventar raqamli qo'lyozma XIX asrning oxirlarida yozilgan. Qo'lyozma chiroyli nasta'liq xatida bo'lib, sariq yupqa shildiroq qog'ozga yozib qoldirilgan. 541-inventar raqamli qo'lyozmaga nisbatan matn farq qiladi va qisqartirishlar uchraydi. Bu qo'lyozmada ham 6408-inventar raqamli qo'lyozmadagi singari qisqartirishlar uchraydi.

Qo'lyozma manbalarning hammasida dostonning asosiy syujeti saqlangan. Ammo qo'lyozmalar qiyosiy tahlil qilinganda matnda muayyan farqlar mavjudligi kuzatildi. Masalan, 541-inventar raqamli qo'lyozmaning boshlanishida berilgan ov tasviri boshqa qo'lyozmalarda qisqartirilgan holda tasvirlanadi. Dostonning muqaddima qismida Diyorbokr podshosi Shohabbosga bo'g'oz quyon duch keladi (1276-inventar raqamli qo'lyozmada bo'g'oz kiyik uchraydi). Quyonning holatini his etgan podshoh uni otmaydi. Va unga rahm qilib, "*... gunoni ko'p qildim, aning uchun Xudo manga farzand bermadi. Man gunodin emdi qaytdim. Hargiz guno qilmayin*" – deb, Ollohga qarata aytilgan munojoti beriladi. Bu munojot boshqa qo'lyozmalarda uchramaydi. Ushbu munojot 20 satrdan, ya'ni beshta banddan iborat murabba' janrida beriladi. Munojotda asosan podshohning Ollohga qarata tavbasi, bu dunyoda hamma yaxshi-yomon qilingan ishlarning javobi bor ekanligini anglab qilgan tazarrusi badiiy ifodasini topgan. Jumladan, munojotning asosiy mazmuni ushbu bandda o'z aksini topgan (ushbu qo'lyozmaning birinchi bandi yirtilganligi uchun o'qishning imkoni bo'lmadi).

*Gunohkor bandani tashlab tamug'g'a,
Qilib hamroh, barin tarso mug'g'a.
Gunohkor bandadur sharmanda Haqq'a,
Alarni ko'p do'zaxda afg'on aylading.*

*Birovni olim qildi, birovni johil
Birovni oqil qildi, birovni g'ofil.
Birovni xo'ja qildi, birovni mullo bil,*





Odamni shul tarza xunobdon aylading.

*Birovni podshoh qildi yerni yuzina,
Birovni shayx qilibdur elning ko'zina,
Birovni rasul qildikim o'zina
Ummat uchun ko'zin giryon aylading.*

*Shohabbos der dunyoda bo'lsam omona,
Zaifam qornida bordir gumona
O'g'ul qiz so'g'unda qolsa nishona,
Debon o'z ko'nglimi xandon aylading.*

541-inventar raqamli qo'lyozmada berilgan ushbu munajat hech bir qo'lyozmada, toshbosma manbalarda, joriy alifboda berilgan doston nashri va baxshilarning og'zaki variantlarida ham uchramaydi. Dostonni ko'chirgan boshqa kotiblar Podshoh nomidan aytilgan ushbu munajotni tushirib qoldirishgan. Sho'ro davridagi hukmron mafkura talabiga ko'ra, diniy- ma'rifiy she'rlar doston matnini tayyorlash jarayonida qisqartirilgan.

Umuman, "Shohsanam va G'arib" qo'lyozmalarni qiyosan o'rganish asosida dostonning mukammal matnini tayyorlash matnshunoslikning galdagi vazifalaridandir.

Adabiyotlar:

- 1.Рўзимбоев С. Хоразм дostonлари. –Т.: Фан. 1985. Б. 72-77.
- 2.Ишаев А. Шоҳсанамнинг ватани қаер? // Фан ва турмуш журнали, 1971 й., 2-сон, Б. 26-27.
- 3.Мадаев О. Хоразм дostonлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. Конд. дис.-Т.:1973 й. Б. 270.
- 4.Эшчанова Г. "Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам" дostonининг вариантлари. ном. дисс.-Т.:1994 й. Б.140.
- 5.Шоҳсанам ва Ғариб. Қўлёзма инв. рақами №541.
- 6.Шоҳсанам ва Ғариб. Қўлёзма инв. рақами №6408.
- 7.Шоҳсанам ва Ғариб. Қўлёзма инв. рақами №1276.
8. Мадиримова, С. М. (2018). О СЮЖЕТЕ ПОЭМЫ «АШИК ГАРИБ И ШАХСАНАМ». Редакционная коллегия, 109.
9. Журакузиев, Н. И. "Model of the world order in the literature and folklore of the ancient Turkic peoples." BULLETIN of the L.N. Gumilyov Eurasian National University. Philology Series 134, no. 1 (2021): 23–36.



POLAND

CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

10. САЙИТҚУЛОВ, И. А. (2019). STYLISTIC AND ARTISTIC FEATURES OF THE WORK TEMUR-NAME. Иностранные языки в Узбекистане, (4), 165-173.
11. Sayitkulov, I. A. (2019). USAGE OF TERM FOLKLORE BOOKS IN FOLKLORE STUDIES AND DEVELOPMENT OF TEMURNOMA (" LIFE OF TIMUR"). Theoretical & Applied Science, (8), 7-10.
12. Жабборов, Н. (2021). Некоторые комментарии к истории текста и его генезису. in Library, 21(2), 5-12.